

# VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI

# O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 142 (1468), 2025-yil 12-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

### SHAXSIY MAS'ULIYAT VA MUSTAHKAM IJRO INTIZOMI – FAOLIYATIMIZ SAMARADORLIGI OMILI

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday mamlakat tashabbuskor, intizomli, shijoatli va islohotlarga daxldorlik tuyg'usi bilan mehnat qiladigan, mas'uliyatni teran his qila oladigan kadrlar bilan taraqqiyotga erishadi. Samarali boshqaruv tizimini yaratish jarayonida har bir xodim o'z zimmasidagi vazifalarni vijdonan va mas'uliyat bilan bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, mahalliy davlat boshqaruv organlari faoliyatida ijro intizomi masalasiga natijadorlikka erishishning muhim omili sifatida qaraladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar doirasida boshqaruvning eskicha ustublaridan voz kechilib, ish yuritishning zamonaviy tizimi joriy etildi, jumladan, rahbar xodimlarning ijro intizomi bo'yicha shaxsiy javobgarligi oshirildi.

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni barcha darajadagi mahalliy hokimliklarda ijro intizomini yanada

mustahkamlash imkonini berdi. "Edo.ijro.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimining joriy etilishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Ushbu elektron tizim qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini nazorat qilishni "zanjir mexanizmi" asosida, ta'bir joiz bo'lsa, "soatbay" tartibga soladi. Natijada qonun, farmon va qarorlar ijrosini to'g'ri tashkil etish orqali amalga oshirilayotgan islohotlarning har bir tuman, qishloq va mahallagacha yetib borishiga erishilmoqda.

► Davomi 2-beta



**Biz tanlagan yo'l**

## ZANJIRNING UCH HALQASI

Barchamiz uchun eng ulug' va aziz ayyom — mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oya ostida nishonlanishi Prezidentimiz tomonidan kuni kecha qabul qilingan qarorda alohida belgilab berildi.

Inson qadri har narsadan ustun qo'yilayotgan, har bir fuqarosini rozi qilishga intilayotgan yurtimizdagi islohotlar mazmuni, mohiyati, maqsadi ana shunday ulug'vor g'oyaga xizmat qilayotgani va ular samarasini bugun har jabhada sezib, ko'rib turibmiz.

Ha, endi ilgari imkonsizdek, iloji yo'qdek tuyulgan ishlar qisqa fursatda uddalanyapti. O'zgarishlar ko'z o'ngimizda ro'y beryapti. Bu, ayniqsa, yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida keyingi sakkiz yil ichida qilingan ishlarda yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Chunki hayotimiz va xalqimiz tafakkurida butunlay o'zgarish yasagan mazkur yillar yangi O'zbekistonda ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy

jihatdan tom ma'noda ulg'ayirdi. Hayotimiz va xalqimiz tafakkurida butunlay o'zgarish yasadagi ushbu davr. Ya'ni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy manzarasi o'zgardi shu davr ichida. Qat'iy siyosiy iroda, g'ayrat-shijoat, tashabbus va ishonch bilan ana shunday natijalarga erishyapmiz.

Bugun yoshlarimizga, farzandlarimizga, nabiralimizga har qancha havas qilsak arziydi. Negaki hozir ular har qachongidan zo'r tarbiya va ta'lim maskanlariga qatnayapti. Zamonning eng ilg'or texnologiyalari bilan jihozlangan binolarda o'qiyapti. Tarbiya topyapti. Ilm olyapti. Kasb o'rganyapti.

► Davomi 3-beta



## Inson qadri uchun



### BANDLIKNI TA'MINLASH VA KAMBAQ'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA ENG MUHIM VA HAL QILUVCHI YIL

Yurtimizda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida adolatli jamiyat, xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri yuksaltirish borasida keng qamrovli ishlar qilindi. Ayniqsa, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan yangilanishlar jarayonida ilgari surilgan ijtimoiy davlat modelini alohida qayd etish lozim.

► Davomi 4-beta

## Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari

### TARIX NAVBATNI YOSHLARGA BERMOQDA

Jahon sivilizatsiyasiga beshik bo'lgan, o'tmishi buyuk yurtimizda yangi tarix yaratilmoqda. Birinchi va Ikkinchi Renessansni ulug' alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni azmu shijoatli yoshlarga bermokda. Zero, ular yangi O'zbekistonning ertasi, millatimiz kelajagi, xalqimiz tayanchi va suyanchi, jamiyat taraqqiyoti garovidir.

Qaysi sohada yoshlar ilg'or bo'lsa, uning kelajagi barqaror, natijasi samarali bo'ladi. Yaqin o'tmishda jaded namoyandalari yoshlarga murojaat etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga chorlagandi. Atog'li jaded bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Ey g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila itifoq etub, jamiyatlar barpo qilib, millat yo'lida xizmat etingiz. Zamon siznikidir. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi", degan edi.

Prezidentimizning Yoshlar kunida fidoyi va vatanparvar yoshlar bilan samimiy muloqoti har birimizni yosh yigit-qizlar ila hamnafas bo'lishga da'vat etadi. Zero, Behbudiy 1914-yilda "Muhtaram yoshlarga murojaat"ida "Mollari yoki so'zlari ila millat foydasiga yordamlari tekkan ba'zi ulamoyu ag'niyomiz ham yoshlar qatoridurlar", deya ta'kidlagandi.

Bugun yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Ta'bir joiz bo'lsa, endi yoshlar islohotlar kuzatuvchisi emas, balki tashabbus ko'rsata oladigan, fikrlari inobatga olinadigan faol kuchga, ilg'or ijtimoiy qatlamga aylandi. Shuning uchun ham bugungi islohotlar markazida aynan ular turibdi.



Islohotlar boshlangan birinchi kunlardanoq ta'lim-tarbiya masalasi, xususan, maktab ta'limini isloh qilish kun tartibiga chiqdi. Aniq maqsadlarga yo'naltirilgan tizimli islohotlar

samarasini ko'rsatib, barchamiz bundan o'n yillar ilgari holat bilan bugungi manzara o'rtasida katta tafovut ko'zga tashlanayotgani guvohi bo'lmoqdamiz.

► Davomi 5-beta



### "YECHIMLAR ATLASI" – MEGAPOLIS SHAHARSOZLIGIDA YANGI STANDARTLAR

ENDI YO'LLAR TA'MIRI BINODAN BINOGACHA TAMOYILI ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI

4



### O'ZBEK QIZLARI

yigitlardan aslo qolishayotgani yo'q

5



KITOBNING KUCHI

6



Tadqiqot xulosasidagi "O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar uchun qimmatli saboq beradi" degan jumla kishi e'tiborini tortadi.

**Ha, o'zbek xalqining tarbiyasi buyuk. Bolalarimiz tarbiyasi borasidagi ishlar ko'limi yanada kengayib borayotgani bilan e'tiborni tortmoqda. Chunki insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l — ta'lim va tarbiya asosida shakllanadi. Biz tanlagan yo'lning asl mazmun-mohiyati ham shunda.**

Sohalar tahlili bilan shug'ullanuvchi institutlar O'zbekistonda ham bor. Shulardan biri — Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari yaqinda 2017-2024-yillarda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar tahlilini e'lon qildi. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagog xodimlar soni 175 ming nafarni tashkil etadi va har bir xodimga o'rta 13,4 bola to'g'ri keladi. Tahlil qilayotgan davr mobaynida pedagog xodimlar soni 2,7 barobar oshgan.

2020-yilda "Finance Inquirer" nashri Markaziy Osiyo tadqiqot guruhi (Research Group Central Asia — RGCA) tadqiqoti natijalari hamda UNICEF, Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga muvofiq, O'zbekiston bolalari maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishda dunyoda eng yaxshi o'sish sur'atini ko'rsatgan 10 ta mamlakat reytingida birinchi o'rinni egallagan.

2023-yildan boshlab O'zbekiston ilk marotaba yo'lga qo'yilgan MELQO xalqaro baholash tizimiga o'rta, bolalarda erta matematika ko'nikmalari o'rta 94 foizni tashkil etishi, katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalarda erta savodxonlik ko'nikmalari 77 foizdan yuqori ekani ayon bo'ldi. E'tiborsiz, baholashda ishtirok etgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 90 foizi o'quv-metod va didaktik adabiyotlar bilan to'liq ta'minlangan. Bular quvonarli fakt va raqamlar.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlari bilan to'liq qamrab olish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barchasida kompyuter sinflarini tashkil qilish orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash maqsadlari belgilangan. Hozirgi natijalar ana shu maqsad yo'lidagi sa'y-harakatlar samarasidir.

Bu yil ham ushbu yo'nalishda qamrovni yanada kengaytirish, sifat va samaradorlikni oshirish borasidagi ishlar tizimi davom ettirilmoqda. Jumladan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan olib va chekka hududlarda maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini tashkil etish, shu jumladan, mobil guruhlar uchun maxsus jihozlangan avtobuslar ajratish hamda joylarda o'yin maydonchalari tashkil etish choralarini ko'riyapti.



# ZANJIRNING UCH HALQASI

## O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar uchun qimmatli saboq



Dilshod ULUG'MURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

### Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar va Prezident maktablari, yangi xorijiy va xususiy oliy o'quv yurtlari tashkil etilgani ularga shunday beqiyos imkoniyat taqdim etmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi o'tgan sakkiz yil davomida maktabgacha ta'lim tizimida qamrov 2017-yildagi 27 foizdan 77 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetgani ta'lim sohasidagi islohotlar ilgari tariximizda misli ko'rilmagani o'zgarishlarga olib kelayotganini anglatadi.

Prezidentimiz joriy yil 30-iyun kuni yoshlarning turli sohalardagi loyihalari, kashfiyot va yutuqlari taqdimoti bilan tanishish chog'ida "Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo'nalishlarni egallab, ancha ilgari ketayapti. Ularni qo'llab-quvvatlasak, sifati ta'lim berib, sharoit yaratdik, bundan ham katta natijalarga erishadi," deya ta'kidlagan edi.

Navqiron avlod vakillariga yaratib berilayotgan shart-sharoit va qulayliklar "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun" qilinayotgan sa'y-harakatlar, desak hech

ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki yoshlar Vatan kelajagi, taraqqiyot bunyodkorlaridir.

Yaqinda bir ma'lumotga ko'zim tushdi. Gap shundaki, keyingi yillarda mamlakatimiz ayollarining bo'sh vaqti ancha ko'payibdi va buning ortidan ularda ishlash imkoniyati kengayibdi. Jahon banki ekspertlari tadqiqotlariga tayanilgan holda tarqatilgan xabarga ko'ra, bu imkoniyat O'zbekistonda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi keskin oshishi natijasida paydo bo'lgan. Aynan shu sabab ayollar bandligi 12 foiz ortgan. Faqat onalar emas, balki bolaga qarash bilan band bo'lgan buvilar, amma-xolalar, opa-singillar ham ishga joylasha boshlagan.

Eng muhimi, bugungi kunga kelib odamlar bog'chaga bolalarni faqat parvarishlash yoki qarab turish vositasi emas, balki ularning kelajagiga sarmoya sifatida qaramoqda.

Tadqiqotda yana bunday deyiladi: "O'zbekistonda 2017-yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish darajasi dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, 3-7 yoshli bolalarning 30 foizdan kamrog'i maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnaydi. 2018-2022-yillarda hukumat umummilliy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kengaytirishni yo'lga qo'ydi, ular sonini uch baravar oshirdi va shahar qishloqlardagi minglab oilalar uchun bolalar parvarishini ulariga yaqinlashtirdi."

Mamlakatimizdagi islohotlar samarasi xususida tushuncha beruvchi ushbu tadqiqot Jahon banki tomonidan muntazam o'tkazib kelinadi. So'rov davomida real vaqt rejimida iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar kuzatib boriladi va shunga qarab xulosa qilinadi. O'zbekistonda o'tkazilgan navbatdagi tadqiqotda 1500 ga yaqin xonadon qamrab olingan va ulardagi o'zgarishlar asosida tahlil qilingan.

O'zbek xalqi azaldan tarbiyaga qattiq turadi. Yoshlarning biror yaxshi amaliga guvoh bo'lsak, "Tarbiya bergan ota-onasiga rahmat", deya munosabat bildiramiz. Ajdodlarimiz, adibu arboblarmiz bejiz ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratib, asarlar bitmagan. Xalq orasida bu borada "qanotli" gaplar ham bekorga bo'lmaydi. "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", "Inson qadr-qimmatini uning mol-mulki, bez-ziyonati, mansabi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatleri, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanadi", "Yaxshi va yomon xalqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi" degan hikmatlarni ko'p eshitganmiz, o'qiganmiz. Ulg'aygan sari bu kabi gaplar mag'zini chaqa boshlaymiz va uni o'g'il-qizlarimiz ongiga singdirishga harakat qilamiz. Tarbiyaga undaymiz. Shu tariqa bu bizning buyuk vazifamizga aylanadi.

Xalqaro tashkilotning yuqoridagi tadqiqotdan kelib chiqib, umuman, keyingi yillarda mamlakatimizda bolalar tarbiyasiga qaratilgan ishlar tahlil etib xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda ushbu masala katta e'tiborda, davlat siyosati darajasidagi ustuvor va dolzarb vazifaga aylangan. Buning samarasi o'laroq, uyda o'tiradigan ayollar nainki o'ziga vaqt ajrata olmaypti, ishlab, ro'zg'origa baraka olib kirishga harakat qilyapti, balki ularning farzandlari ertaga elu yurtiga naf keltiradigan yaxshi inson, mutaxassis bo'lib voyaga yetishi uchun qulay sharoit yaratyapti. Negaki tarbiya o'chog'i avvalo oila bo'lsa, so'ng maktabgacha ta'lim tashkilotlari, xalq tili bilan aytganda, bolalar bog'chalaridir. Bola ongi, tasavvuri, hayotga qarashlari aynan shu ikki maskanda shakllanadi.



Tadqiqot o'z yo'lga-yu, yurtimizda so'nggi paytlarda bolalar tarbiyasi, bilim olishi uchun qilinayotgan ishlar ko'limi sezilarli darajada kengaygani rost. Kechagina aksariyat qishloqlarda bolalar bog'chasi yo'q edi. Ehtimol, uning barpo etilishini kuzata turib, xayolidan "odamlar bolalarini beramikan?" degan o'y o'tgan, ishonmaganlar ham bo'lgandir. Lekin bugun ularga aytiladigan gaplar, ko'rsatiladigan misollar yetarli. Falon unimning falon qishlog'ini misol sifatida keltirmoqchi ham emasmiz. Buning uchun joylarga chiqishning, ko'z bilan ko'rishning o'zi kifoya. Oxirgi yetti yilda maktabgacha va maktab

ta'limi uchun ajratilayotgan mablag' yetti karra oshirilgani, joriy yilda miqdori 60 trillon so'mni tashkil etgani hisobiga maktablarda 1 millionga yaqin, bog'chalarda 1,5 million yangi o'rin yaratilgani O'zbekiston o'z farzandlari taqdiriga qanchalik qayg'urayotgani, demakki, barqaror va farovon kelajak uchun bugundan puxta zamin yaratishga kirishgani anglatadi.

Ayni paytda yurtimizda 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog'cha faoliyat yuritmoqda. Olti yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlarga qamrab olingan. Keyingi yili bu raqam 100 foizga chiqadi.



## 2010-2016-yillarda 73 ta, birgina 2024-yilda 122 ta medal

Donolar aytadi: ilm egarlangan ot, bilganga do'st, bilimanganga dushmanidir. Chindan ham ilmga oshno bo'lish zo'r odat. U insonni yaxshi va yorqin kelajakka yetaklaydi. Mamlakat, jamiyat rivoji ana shunga odatlanganlari soni qanchalik ko'pligiga bog'liq.

Ko'pchilik investitsiya deganda biror soha yoki tarmoqqa yo'naltiriladigan sarmoyani tushunadi. Lekin investitsiyaning eng samaralisi ilmga, farzandlar bilim olishi uchun sharoit yaratishga sarflanganidir. Shu jihatdan Prezidentimizning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi "Investitsiyalar faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir! Keling, birgalikda shunday investitsiya muhitini yarataylikki, u daromad keltirish bilan birga, inson qadriini ulug'laydigan, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlaydigan va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan mustahkam poydevorga aylansin!" degan gapi fikr yuritayotgan mavzumizga ham daxldorligi bilan alohida ahmiyatli. Chunki bugun mamlakatlar ravnaqi, kelajagi uning hududi yoki tabiiy boyligi bilan emas, yoshlarning qobiliyati, iqtidori, tafakkuri bilan o'lchanmoqda. Oddiy qilib aytganda, bilim dunyodagi eng qimmatli boylikka aylanib bo'ldi.

Har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq ekani ham allaqachon isbotini topib ulgurgan. Shunday ekan, nima uchun o'qimasligimiz, bilim olmasligimiz, o'z ilimimiz bilan vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shmasligimiz kerak?! Ayniqsa, buning uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilayotgan sharoitda. Jumladan, bizda 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur qabul qilingan. Shuningdek, ta'lim dasturlari eng ilg'or

mamlakatlar tajribasiga moslashtirilmoqda, darsliklar yangilanyapti, maktablar zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanayapti.

Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari faoliyati, muntazamlik kasb etgan fan olimpiadalari o'z natijasini ko'rsatmoqda. O'tgan vaqt ichida ilk bor 530 ta maktabda inklyuziv ta'lim joriy etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 288 mingdan ortiq boshlang'ich sinf o'quvchisining bepul oqvatlanishi yo'lga qo'yildi. Xususiy sektor rivoji uchun yaratib berilayotgan qulay imkoniyatlar natijasida nodavlat maktablar ulushi 5 foizga yetdi.

Ta'lim-tarbiya sohasiga berilayotgan ulkan e'tibor tufayli yoshlarimiz bilim, fan va texnika, madaniyat va san'at, sport sohalarida yuksak marralarni qo'lga kirityapti. Xususan, 2010-2016-yillarda o'quvchilar xalqaro fan olimpiadalarida 73 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, so'nggi yetti yilda 349 ta, 2024-yilning o'zida esa 122 ta medalgacha saovor bo'lgan.

Hozir o'quvchilar ta'tilda. O'qituvchilar dam olishda. Lekin bu yoshlar ta'lim va tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilishi kerak degani emas. Prezidentimiz tashabbusi bilan e'lon qilingan "Dolzab 90 kun" davomida umumta'lim maktablaridagi o'quvchilar va mahallalardagi uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 3 oyga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, o'quvchilar o'rtasida tanlov, musobaqa va tadbirlar o'tkaziladi. Xullas, bu orqali yoshlarning ta'tilda ham band bo'lib, foydali namadir o'rganishi uchun imkoniyat taqdim etilyapti. Binobarin, maktab quruq kelib-ketish emas, bilim olish maskani bo'lmog'i lozim.

## Yurtimizda tahsil olayotgan xorijlik talabalar qamrovi qariyb 10 barobar oshdi

O'zbekiston — yoshlar mamlakati. Aholining 60 foizi navqiron avlod vakillari. Har yili shundan salkam yarim millioni maktablarni tamomlab, katta hayot sari qadam tashlaydi. Ular safiga litsey va texnikumlar, maktabning to'qqizinchi sinf bitiruvchilarini ham qo'shsak, son bir millionga yetib qoladi. Bu — katta kuch.

Aniq maqsad, oqilona siyosat tufayli katta hayotga qadam qo'yayotgan, ya'ni jamiyatimizga foyda keltirishni ko'zlagan, katta orzuli ana shu yoshlar uchun oliy ta'limda ham ko'p imkoniyat yaratib berilyapti.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Yurtimizda keyingi yillarda oliy ta'lim yo'nalishi zamon talablariga mos isloq qilinayotgani, tizimga zamonaviy yondashilayotganining boisi ham shunda. Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda 2017/2018-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari (OTM) soni 72 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023/2024-o'quv yilida 200 dan oshdi. O'sish 300 foizdan ziyod. Bu orada xorijiy oliy ta'lim muassasalari fillallari soni ham qariyb 4,5 barobar ko'payib, 31 taga yetdi.

2025-yilda O'zbekistondagi 23 ta oliy ta'lim muassasasi QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reytingining Markaziy Osiyodagi top universitetlar ro'yxatidan o'rin oldi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga universitetlar qanday ta'sir ko'rsatishini baholovchi xalqaro reyting tashkiloti — Times Higher Education (THE) Impact Rankings natijalariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistondagi 53 ta oliy ta'lim

muassasasi ushbu global reytingga kiritildi. Ulardan 7 tasi "TOP-1000" ta oliy ta'lim muassasasi reytingidagi joy olgan.

2024-yil O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 12,5 ming kishini tashkil qildi va 2017/2018 (1,3 ming nafar) o'quv yilidagiga nisbatan 9,6 barobar oshdi. Mamlakatlar kesimida olib qaraydigan bo'lsak, xorijlik talabalarning aksariyatini Hindiston (6502 nafar), Turkmaniston (1430), Pokiston (1250), Rossiya (732) fuqarolari tashkil etadi.

O'tgan yili 27,3 ming o'rinni talabalar turar joyi barpo etildi. Shuningdek, talabalar turar joyiga joylashish tizimi to'liq raqamlashtirildi. Bu orqali talabalar o'z yashash joyini masofadan turib onlayn band qilishi mumkin. Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, davlat OTM magistraturasida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovi davlat byudjeti hisobidan to'lab berilmoqda. Bu maqsad uchun har yili kamida 200 milliard so'm ajratilishi belgilangan.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, oliy va professional ta'limda tahsil olayotgan xotin-qizlarga 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditini ajratish tartibi joriy etildi va ushbu tizim Prezidentning 2024-yil 27-maydagi farmoni bilan takomillashtirildi.

Shu kunlarda yangi o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul boshlangan. Ayni paytda maktab, litsey, kollej bitiruvchilari ana shu mas'uliyati va hayajonli palla oldida turibdi.

Joriy yilgi qabul ham "avval test,



keyin tanlov" tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. Ya'ni abituriyentlar avval test sinovlarini toshiradi, so'ng o'z natijalariga qarab, 15 kun ichida oliy ta'lim muassasasi, yo'nalish va o'qish shaklini tanlaydi. Ushbu tartib abituriyentlarga o'z bilim darajasiga mos ravishda yo'nalish tanlashda adolatli imkoniyat yaratishi bilan alohida ajralib turadi.

Qolaversa, joriy yilda ham nogironligi bor shaxslarga maxsus sharoitlar yaratiladi. Ular uchun alohida kvotalar mavjud. Yetim va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar alohida kvotalar asosida o'qishga qabul qilinadi. Harbiylar farzandlari, chekka hududdagi maktab bitiruvchilari, xalqaro olimpiada g'oliblari hamda maxsus sertifikatga ega bo'lganlar imtiyozga ega.

Joriy yilning 10-iyunidan 2025/2026 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga qabul bo'lganlar ro'yxatiga qabul parametrlari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tasdiqlandi. Unga ko'ra, 73 ta akademik

litseyga jami 15 ming 262 ta kvota ajratildi.

Umuman, ta'lim tizimi va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qator ustuvor maqsadlar belgilab olingan. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, 30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, "TOP-500" talikka kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish, qo'shimcha 120 ming o'rinni o'quv binolari hamda 150 ming o'rinni talabalar turar joyini qurish shular jumlasidan.

O'qish va o'rganishning kechi bo'lmaydi. Uning chegarasi ham yo'q. Barcha muammolar yechimi ilmda. Balki shu bois inson doim ilm olish va kasb-hunarga intilib yashaydi hamda bu eng to'g'ri yo'lidir.

## Inson qadri uchun

## BANDLIKNI TA'MINLASH VA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA ENG MUHIM VA HAL QILUVCHI YIL

66

**Biz nafaqat ish joyi yaratdik, balki odamlarning o'z daromadini kafolatli olishi uchun sharoit ham hozirladik. Masalan, 77 mingta xonadonga yiliga 60-70 million so'm daromad keltiradigan loyiha paketlari berildi.**



**Alisher MURODOV,**  
kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinbosari

## Boshlanishi 1-betda

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir".

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda ushbu tamoyil mustahkamlanishi natijasida inson qadri ulug'lash, huquq va manfaatlarini himoyalashga yo'naltirilgan ishlar ko'lami yanada kengaymoqda. Ayniqsa, "Odamlar ertaga yoki uzoq kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi kerak" degan maqsad asosida ijtimoiy davlatning asosiy mohiyati — aholini daromadli

ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning shu yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi tasdiqlandi. Dasturga ko'ra, bu yil investitsiya loyihalari hisobiga qariyb 290 ming, doimiy ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb etish orqali 3,6 millionga yaqin, qishloq xo'jaligida qariyb 1,2 million, qurilishda 168,5 mingdan ortiq, jami 5 million 200 mingga yaqin aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Ularning hisobini yuritish hamda haqqoniylikni ta'minlash maqsadida vazirlik



tomondan "yangiish.mehnat.uz" elektron dasturi ishga tushirildi. Joriy yilning birinchi yarmida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash bo'yicha



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

66

**BANKLAR BILAN HAMKORLIKDA 1 MILLION 780 MING FUQARO ISHGA JOYLASHTIRILDI YOKI O'Z BIZNESINI BOSHLASH IMKONIGA EGA BO'LDI. ULARDAN 661 MING NAFARI DOIMIY ISHGA JOYLAHD, 1 MILLIONDAN ORTIG'I ESA TADBIRKORLIK FAOLİYATINI BOSHLADI.**

shu tajriba samarasi o'rta hisobda 60 ming yurtdoshimizning turmushida ijobiy o'zgarishlar yasad, hayotiga farovonlik, qalblariga bugungi yashayotgan kunidan rozilik, ertangi kunga ishonch hissini olib kirdi, desak xato bo'lmaydi. Ushbu loyihalarga 300 milliard so'mga yaqin mablag' yo'naltirildi.

Biz nafaqat ish joyi yaratdik, balki odamlarning o'z daromadini kafolatli olishi uchun sharoit ham hozirladik. Masalan, 77 mingta xonadonga yiliga 60-70 million so'm daromad keltiradigan loyiha paketlari berildi.

Bundan tashqari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 63,6 trillion so'm kredit ajratildi. Ularning katta qismi oilaviy va kichik biznesga qaratilgan. Yoshlar, xotin-qizlar, mehnat migratsiyasidan qaytganlar va nogironligi bo'lgan fuqarolar ham bu yo'nalishdagi ishlarimizning markazida bo'ldi. 163 ming kishi kasb-hunarga o'qitildi. Bu bir qarashda raqam, lekin aslida yuz minglab taqdirlar uchun yangi imkoniyat degani.

Shuningdek, norasmiy ishlayotganlarning mehnati rasmiylashtirildi. Mehnat inspeksiyasi 5,5 mingdan ziyod korxonani o'rganib, qariyb 44 ming ishchi joyini rasmiy holatga o'tkazdi.

Umuman olganda, davlatimiz rahbari aytganidek, "2025-yil bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo'ladi". Chunki bu yil 5 million 200 ming aholini daromadli mehnat bilan band qilib, 1,5 million odamni kambag'allikdan chiqarish hisob-kitob qilingan.

Kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida keyingi yillarda erishilgan natijalar nafaqat o'zimizda, balki qo'shni davlatlar, xalqaro tashkilotlar, dunyo jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilayotir. Aslida, kambag'allikni qisqartirish borasida juda qisqa fursatda O'zbekiston qo'lga kiritgan samaralar tom ma'noda e'tirofoga loyiq. Xususan, yurtimizda kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yilda 11 foizga kamaytirilgan bo'lsa, 2024-yil yakuni bilan 8,9 foizga tushirildi. Vaholanki, 2017-yilda bu ko'rsatkich 30 foizdan yuqori edi.

Bugungi kunda 625 mingdan ziyod oila "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan. Ular bilan manzilli ishlandi. Yangi ish joyi, kasb-hunar, kredit, yer maydoni — har bir oila uchun individual yondashuv ta'minlandi.

Birinchi yarim yillikda ularga 543 mingta xizmat ko'rsatildi. 295 ming kishi ishga joylashtirildi, 235 ming nafari biznesga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilning birinchi yarmida qilingan ishlar, erishilgan natijalar shunchaki raqamlar emas, balki har biri e'tiborga, yordam yoki qo'llovga muhtoj insonlar hayotidagi o'zgarishlardir. Aholini ish bilan ta'minlash orqali faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikka ham erishilishini hisobga olsak, biz yuqorida keltirib o'tgan ayrim raqamlarning ahamiyati naqadar katta va muhim ekanini tushunish qiyin emas. Eng muhimi, bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom etadi.

## "YECHIMLAR ATLASI" – MEGAPOLIS SHAHARSOZLIGIDA YANGI STANDARTLAR

## ENDI YO'LLAR TA'MIRI BINODAN BINOGACHA TAMOYILI ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI

bevosita muloqotni yo'lga qo'yib, muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, umuman olganda, aholi uchun qulay sharoit yaratish orqali bugungi yashayotgan kunidan roziligiga erishish bosh maqsadga aylandi.

Aynan shu shaharsozlik talabi va "Inson qadri uchun" tamoyili asosida poytaxtimiz tubdan o'zgardi. Har bir yo'nalish, har bir sohada o'zgarishlar aholi manfaatlarini, orzu-umidlarini va ehtiyojlariga muvofiq, turli yoshdagi va kasbdagi odamlar uchun qulay infratuzilma yaratishga qaratildi.

Bu borada oxirgi paytlarda loyihalar qamrovi tobora kengayib borayotganini alohida qayd etish lozim. Xususan, so'ngi yillarda poytaxtda yanada ulkan loyihalar amalga oshirildi. Investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida uy-joy, ijtimoiy va infratuzilma obyektlari qurilishi katta miqyosda olib borildi.



66

**Hozirgi standart bo'yicha yo'llarni qurish va ta'mirlash ishlari qatnov qismining "qizil chizig'i" gacha bajarilayotgan bo'lsa, endilikda bu rivojlangan shaharlar tajribasiga ko'ra, KO'CHANING IKKI TARAFIDAGI BINODAN BINOGACHA TAMOYILIDA AMALGA OSHIRILADI.**

Sifatli yo'l odamlarning kayfiyati va iqtisodiyot rivojida ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, yo'l qurilishiga yangicha yondashuvlarni joriy qilib, sifati oshirish, sohani raqamlashtirish va xususiy sektorni

keng jalb qilish bugunning dolzarb vazifalaridan.

Bu borada so'ngi yillarda mamlakatimizda yo'l qurish va ta'mirlashga ajratilayotgan mablag' miqdori bir necha barobar oshgani diqqatga sazovor. Avtomobil yo'llari qo'mitasi tarkibidagi korxonalar zarur maxsus texnika bilan ta'minlanmoqda.

Lekin ayni yo'nalishdagi ishlar ham kamchiliklardan xoli emaski, ba'zan qurilayotgan yo'llarning sifatsizligi haqli ravishda e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. To'g'ri-da, axir yangi yo'llar ko'p o'tmay, yaroqsiz ahvolda kelayotgani uchun yana ta'mirlanayapti.

Shu bilan birga, yo'llarni loyihalash me'yorlari eskirgan. Ularning katta-kichikligi yoki hududlarning iqlim sharoitiga qaramay, bir xil andoza qo'llanmoqda. Loyihalarda yo'l bo'yi infratuzilmasi nazarda tutilmagani bois, aksariyat savdo va servis shoxobchalari tartibsiz joylashgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, aynan yo'l qurilishi bo'yicha aholidan qator haqli e'tirozlar bo'lmoqda. Buning asosiy sababi ma'lum standartlar yo'qligi. Shu bilan birga, ta'mirlash ishlarini har xil qurilish tashkilotlari amalga oshirib ketavergani uchun mana shunday holat yuzaga keldi. Bundan keyin bu ishlar bosqichma-bosqich, kamchiliklarni bartaraf etish orqali tizimli amalga oshirildi.

Taqdimotda, shuningdek, Toshkent va Yangi Toshkent shahrida obodonlashtirish, yo'l infratuzilmasi, piyodalar yo'lakchalari, velosipedda harakatlanish bo'yicha yangi ishlab chiqilgan standartlar haqida ma'lumot berildi.

Eng muhimi, shaharning o'ziga xosligini saqlagan holda qiyofasini yanada yaxshilash, yo'l bo'ylarini obodonlashtirish nafaqat aholi turmush madaniyatini oshirishga, shuningdek, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan mehmonlar va sayohat uchun ham qator yengilliklar yaratishi bilan katta ahamiyat kash etadi.

**Lutfulla SUVONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Munosabat

**Hayotimizdagi o'zgarishlar, yon-atrofimizda kechayotgan yangilanishlar ahamiyatini, ularning biz uchun nechog'liq qadr-qimmatli ekanini odatda taqqoslar orqali baholaymiz. Masalan, bugungi yosh avlodga yaratilgan sharoitlar bilan o'zimizning bolalik chog'larimiz, maktab va undan keyingi katta hayot yo'ligacha bo'lgan davrimizni qiyoslaymiz, ularga havaslanib, imkoniyati biznikidan necha chandon yaxshi ekanini chalamaymiz. Yoki o'zimiz tug'ilib o'sgan mahalla, ko'chamizdagi bunyodkorlik ishlariga boqib, avvalgi holatini xotirlaymiz. Va taqqoslarimiz asosida ma'lum xulosalarga kelib, o'zgarishlar ahamiyatini baholaymiz.**

Masalan, keyingi yillarda ham hududiy jihatdan kengayib, ham osmonga qarab "o'sayotgan", tom ma'noda megapolisga aylanib borayotgan Toshkent shahrini olaylik. Sakkiz yil avval poytaxtimiz boshqa shaharlar qatori rivojlanish bilan bog'liq jihatlaridan muammolari ko'proq edi. O'n yillab yechimini topmagan muammolar, o'z navbatida, aholi hayotida qulayliklar yaratishga to'sinlik qilardi.

2017-yildan boshlab Toshkentda ulkan o'zgarishlar boshlandi, buning natijasida ishlar keng quloch yozdi. Bu jarayon tizimli asosda amalga oshirildi. Barcha loyihalar, dastur va katta miqdordagi investitsiyalar aholi uchun maksimal darajada qulay, sog'lom va farovon muhit yaratishga qaratildi.

Poytaxtimiz ham qurilish, ko'klamzorlashtirish va obodonlashtirish miqyosi, ham zamonaviylik jihatidan yangi davrga yuz tutar ekan, buning o'ziga yarasha talablari bo'lishi tabiiy, albatta. Jumladan, ulkan megapolisning o'sish jarayoni puxta o'ylangan, har bir qadam ehtiyojkorlik bilan belgilanishi, zamonaviy tendensiyalarga mos kelishi kerak edi.

Bu masalaning bir tomoni, boshqa tomondan esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosini "Inson qadri uchun" degan tamoyil tashkil etmoqda. Buning uchun, avvalo, aholi bilan

Eng muhimi, ko'plab milliy-me'moriy loyihalar yangi O'zbekistonning yorqin ramziga aylandi. Har bir loyiha puxta o'ylangan, Yangi Toshkent qurilishi esa poytaxtimizning megapolis maqomini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Biroq poytaxtimizning ulkan salohiyatidan kelib chiqib, yanada ko'proq natijalarga erishish mumkin. Mamlakatimizning iqtisodiy rivoji Toshkent shahri qiyofasida yaqqol namoyon bo'ladi. Bugun barcha tumanlar va poytaxtimiz atrofida bunyodkorlik sur'ati jadallashmoqda.





